

## **KORPORATIV MOLIYA VA UNING HUQUQIY ASOSLARI**

**Nasimova Yulduz Baxriddin qizi**

Toshkent moliya instituti

Bank ishi fakulteti 3-kurs BIA-82 guruh talabasi

**Annotatsiya:** Yangi O'zbekistonimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar va uning to'liq joriy qilinishi uchun korxonalar boshqaruv tizimining samaradorligi yetarli saviyada bo'lishi kerak. Jahon ilm-fanida ham korporativ boshqaruv tizimining samaradorligi muammosini tadqiq qilish yetakchi ilmiy muammolardan sanalib, uning eng murakkab yo'nalishlaridan biri bo'lgan korporativ korxonalarda korporativ boshqaruv uslubiyotini takomillashtirib borish, rivojlanayotgan mamlakatlarda ham dolzarb muammo hisoblanadi. Ushbu maqolada shu xususida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** demokratiya, aksiyadorlik kompaniyalari, investorlar, moliya, kapital qo'yilmalar, moliya institutlari, menejment.

Yurtimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqoralik jamiyatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri demokratik bozor islohotlarini va iqtisodiyotni liberallashtirishni yanada chuqurlashtirishdir. Bu esa mavjud qonunchiligimizning qo'llanish amaliyotini va mamlakatimizda bozor munosabatlari rivojlanishining hozirgi davridagi yangi real holatidan kelib chiqib, jiddiy qayta ko'rib chiqish zaruriyatini tug'dirmoqda.

Bugungi kunda tobora shiddat bilan rivojlanayotgan mamlakatimiz iqtisodiyotida aksiyadorlik kompaniyalarining roli kattaligi ma'lumdir. Ushbu tizimga taalluqli bo'lgan iqtisodiy islohotlar va qonunchilikni takomillashtirish va aksiyadorlik jamiyatlarining boshqaruv rahbarlari va mutaxassisilarning malakasini zamon talablari asosida oshirishni tashkil qilish zarurligini bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Shu bois, Kuzatuvchilar kengashi, umumiy yig'ilish, taftish komissiyasining roli va ahamiyatini oshirish, minoritar aksiyadorlarning kafolatlarini ko'proq ta'minlash, barcha aksiyadorlarni va bo'lajak investorlarning aksiyadorlik kompaniyalari faoliyati to'g'risida axborot olish imkoniyatlarini kengaytirishni hamda ularning boshqaruv jarayonida qatnashishlarini ko'zda tutish ayni muddao bo'lur edi. Bunday vazifalarning bajarilishligini ta'minlash orqali aksiyadorlik jamiyatlarida va uning tuzilmalarda boshqaruvning takomillashuvi va uning samaradorligini hamda uning huquqiy negizi yaratiladi albatta. Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida

korporativ boshqaruvning zamonaviy standart va usullarini joriy etish, korxonalarni strategik boshqarishda aksiyadorlarning rolini kuchaytirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi o'g'risida"gi Farmoniga ko'ra, "...kompaniyalarning moliyaviy-iqtisodiy faoliyati samaradorligini oshirish, korporativ boshqaruvni optimallashtirish maqsadida ishlab chiqarish va boshqarish jarayonlarini avtomatlashtirish (ERP) tizimlarini joriy qilish, davlat qimmatli qog'ozlarini norezidentlar tomonidan xarid qilishga ruxsat berish, korporativ qimmatli qog'ozlar bozorida likvidlikni oshirish va davlat ulushi mavjud korxonalarda xususiylashtirish jarayonlariga xorijiy investorlar va xalqaro moliya institutlarini jalb qilish<sup>1</sup> kabi vazifalarninigi belgilanishi aynan shunda kurslarni tashkil qilishning dolzarbligini bildiradi.

Ushbu dolzarblikdan kelib chiqib, iqtisodiyotning barcha sohalarida zamonaviy korporativ boshqaruv tizimini kengroq tatbiq etish maqsadida oliy maktabi tomonidan ustav kapitalidagi davlat ulushi bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning kuzatuv kengashlari a'zolari uchun ishlab chiqilgan korporativ boshqaruvning zamonaviy amaliyoti va tamoyillari" dasturni ishlab chiqdi.

Korporativ moliya – bu korporatsiyalarning mablag 'manbalari, kapital tuzilishi va investitsiya qarorlari bilan qanday munosabatda bo'lishlari bilan shug'ullanadigan moliya bo'limi. Korporativ moliyalashtirish, birinchi navbatda, uzoq va qisqa muddatli moliyaviy rejalashtirish va turli xil strategiyalarni amalga oshirish orqali aksiyadorlar qiymatini maksimal darajaga ko'tarish bilan bog'liq.

Korporativ moliya vazifalariga kapital qo'yilmalarni kiritish va kompaniyaning uzoq muddatli kapitalini joylashtirish kiradi. Kapital qo'yilmalarni hal qilish jarayoni, avvalambor, kapital byudjetini shakllantirish bilan bog'liq. Kapital byudjetni tuzish orqali kompaniya kapital xarajatlarni aniqlaydi, taklif etilayotgan kapital loyihalardagi kelajakdagi pul oqimlarini taxmin qiladi, rejalashtirilgan investitsiyalarni potentsial daromadlar bilan taqqoslaydi va kapital byudjetiga qaysi loyihalarni kiritishni hal qiladi.

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni

Kapital qo'yilmalarni kiritish, ehtimol, biznesga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan eng muhim korporativ moliya vazifasidir. Sifatli kapital byudjetni rejalashtirish (masalan, haddan tashqari sarmoyalash yoki kam mablag' bilan ta'minlangan mablag'lar) moliyaviy xarajatlarni ko'payishi yoki operatsion imkoniyatlarning etarli emasligi sababli kompaniyaning moliyaviy holatini buzishi mumkin.

Shuningdek, korporativ moliya oldiga qisqa muddatli moliyaviy menejment ham yuklanadi, bunda maqsad doimiy operatsiyalarni amalga oshirish uchun etarli likvidlikni ta'minlashdir. Qisqa muddatli moliyaviy boshqaruv joriy aktivlar va joriy majburiyatlar yoki aylanma mablag'lar va operatsion pul oqimlari bilan bog'liq.

Belgilangan muddatda kompaniya barcha majburiyat majburiyatlarini bajara olishi kerak. Bu kompaniya faoliyatini buzmaslik uchun etarli likvidliktivlarga ega bo'lishni o'z ichiga oladi. Qisqa muddatli moliyaviy menejment, shuningdek likvidlikni ta'minlash uchun qo'shimcha kredit liniyalari olish yoki tijorat hujjatlarini chiqarishni o'z ichiga olishi mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Pulatova M.B., Sultonov Sh.N., Yuldasheva N.B., Tursunxodjayeva Sh.Z. "Moliya" fanidan kurs ishini bajarish bo'yicha uslubiy qo'llanma (Oliy ta'limning 230 000 – «Iqtisod» ta'lim sohasining 5230600 - «Moliya» bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun).T.: TMI, 2022. 37 bet.
2. Суюнов Д.Х., Хошимов Э.А., Хусайнов Ш.А. Копроратив бошқарув: муаммолар ва замонавий ечимлар. Монография.: "BROK CLASS SERVIS" МЧЖ босмахонасида чоп қилинган. Монография. 2021 йил. -207 бет.
3. N.T.O'rmonov.,A.R.Ismailov. "Korporativ boshqaruv tizimi" fani bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. Ma'ruza mashg'uloti uchun. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2018 yil, 178 bet.
4. Машарипов, В. У., Мирвалиева, Н. Р., & Абдуллаев, У. М. (2023). Местный иммунитет и специфическая сенсibilизация к антигенам бактерий у больных тонзиллитом. Science and Education, 4(2), 392-400.
5. Akhmedova, N. (2022). DEFINITION OF THE CONCEPT OF "ALGORITHMIC COMPETENCE". Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(12), 140-143.